

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan 2022 yilda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan,

O‘rmon fondi yerlari **12 mln. gektarga** yetkazildi. O‘rmon fondi yer maydonining **85,5 foizini (10 mln. 260 ming gektar)** cho‘l, **13,2 foizini (1 mln. 584 ming gektar)** tog‘, **0,2 foizini (24 ming gektar)** vodiy, **1,1 foizini esa (132 ming gektar)** to‘qay hududlari tashkil etadi.

O‘rmon fondining foydalanimayotgan **7 ming gektar** yer maydonlari o‘zlashtirilib, foydalinishga kiritildi, foydalanimayotgan **3,5 ming gektar** yer maydonlari jismoniy va yuridik shaxslarga uzoq muddatga ijara berildi.

2022 yilda O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan jami **232,8 ming** gektar maydonda o‘rmon barpo etish va qayta tiklash tadbirlari bajarildi. Shu jumladan, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida jami **208 ming gektar**, shundan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida **107 ming gektar**, Buxoro viloyatida **40 ming** gektar, Navoiy viloyatida **50 ming gektar** va Xorazm viloyatida **11 ming gektar** maydonda cho‘l o‘simgiliklaridan “yashil qoplamlar” - himoya o‘rmonzorlari barpo etildi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlar dala chetlarida **2,5 ming gektar** maydonda ihota daraxtzorlari barpo etildi.

O‘rmon barpo qilish, niholxona va ko‘chatxonalar tashkil etish hamda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun daraxt va butalarning **1 000 tonna urug‘lari** jamg‘arildi.

- jami **113 mln. dona**, shundan, **30 mln dona** tut, **15 mln** dona terak va pavlovnija, **68 mln dona** boshqa turdag‘i manzarali, mevali daraxt hamda butalarning nihol va ko‘chatlari yetishtirildi.

Respublika bo‘yicha “**Yashil makon**” umummilliy loyihasi doirasida davomida ko‘chat ekish ishlariiga barcha kuch va imkoniyatlar to‘liq safarbar etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublika hududlarida jami **202,8 mln dona** manzarali, mevali va boshqa turdag‘i ko‘chatlar ekildi (**102 foiz**).

*Ma‘lumot o‘rnida: Qoraqalpog‘iston Respublikasida **14,1 mln. dona**, Andijonda **15,6 mln dona**, Buxoroda **16 mln dona**, Jizzaxda **15,9 mln dona**, Qashqadaryoda **16,3 mln. dona**, Navoiyda **15 mln. dona**, Namanganda **15,1 mln dona**, Samarqandda **16,5 mln dona**, Surxondaryoda **16 mln dona**, Sirdaryoda **13,9 mln dona**, Toshkentda*

16,3 mln dona, Farg'onada **14,8 mln dona**, Xorazmda **15,2 mln dona** hamda Toshkent shahrida **1,2 mln dona** iqlim sharoitga mos ko'chat va qalamchalar ekildi.

"Yashil makon" loyihasi doirasida ekish uchun Olmazor tumaniga **31 ming dona** va Yangi hayot tumaniga **20 ming dona** jami **51 ming** donadan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar yetkazib berildi.

Shuningdek, agentlikka biriktirilgan mahallalarda istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida **340 ta** ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatilgan bo'lsa, **100 nafar** fuqarolarning O'zbek Milliy Akademik drama teatriga hamda **50 nafar** fuqarolarning Samarqand viloyatidagi turizm markazlariga sayohati tashkillashtirildi.

O'rmon xo'jaliklari tomonidan kuzgi ko'chat ekish mavsumida ko'chatlarni yetkazib berish bo'yicha reja-grafigi tasdiqlandi hamda **13,5 mln. tup** (*topshiriqqa nisbatan 104,5 foiz*) ko'chatlar yetkazib berildi.

Bundan tashqari, "**Yashil hudud**" DUK va uning hududiy korxonalari hamda mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari" tashkil etilishi bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Buning natijasida **588,4 hektar** maydonda (rejaga nisbatan **101 foiz**) "yashil bog'lar" va **662,3 hektar** maydonda "yashil jamoat parklari" (rejaga nisbatan **61 foiz**) tashkil etildi

- **5,4 ming** hektar maydonda dorivor va ozuqabop o'simliklar plantatsiyalari barpo etilib, **8,3 ming tn** dorivor va ozuqabop o'simliklar xom ashyosi tayyorlandi.

- o'rmon fondining o'zlashtirilmagan yerlarida **20 dona** tik quduqlar va **15 dona** suv nasoslari o'matildi;

- xususiy sektor subyektlarini keng jalb qilish hisobiga chorva soni **160 ming boshga**, parranda soni **1,1 mln. boshga**, asalari oilasi soni **210 ming taga** yetkazildi.

Sohada qo'shimcha tarmoqlarni rivojlantirish hisobiga yalpi daromad **290 mlrd. so'mni tashkil qildi** va **10 ming ta** yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'rmon xo'jaliklarida "**Temir daftari**", "**Yoshlar daftari**" hamda "**Ayollar daftari**"ga kiritilgan **10054 ta** aholi yangi ish o'rinlariga ega bo'ldi (*shundan, 3414 nafar yoshlar, 1626 nafar xotin-qizlar*).

O'rmon fondi yerlarida **2 ta** tashrif markazlari, **30 ta** eko marshrutlar tashkil etildi va **190 ta** loyihalar amalga oshirilib, ekoturizm obyektlari **270 taga** yetkazildi.